

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining
audit qo‘mitasi to‘g‘risida
NIZOM
(yangi tahriri)**

Muqaddima

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Audit qo‘mitasi tarkibi, uni tuzish va vakolatlarini tugatish

3-§. Audit qo‘mitasining vazifalari

4-§. Audit qo‘mitasi ishini tashkil etish va majlisini o‘tkazish

5-§. Audit qo‘mitasi a‘zolarining huquq va majburiyatlari

6-§. Audit qo‘mitasi a‘zolarining javobgarligi

7-§. Yakuniy qoidalar.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonuni, Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida nizom (*Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3254-son bilan ro‘yxatga olingan*), Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom (*Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 7 mayda 3302-son bilan ro‘yxatga olingan*) asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki audit qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Audit qo‘mitasi) maqomi, tarkibi, vazifalari, ishlash tartibi, Bankning boshqa boshqarish organlari bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek a‘zolarining huquqi, majburiyati va javobgarligini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Bosh bank – Bank boshqaruvi apparati;

bank xizmatlari ofisi – Bankning Amaliyot boshqarmasi va bank xizmatlari ofislari.

2. Audit qo‘mitasining asosiy vazifasi vakolat doirasida masalalarni chuqur o‘rganish hamda ular bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, Bank kuzatuv kengashining nazoratga doir vazifalarini bajarishida unga ko‘maklashish hisoblanadi.

Audit qo‘mitasi Bank kuzatuv kengashining qarorlari ijrosini, Bank strategiyasi va maqsadlarining bajarilish jarayonini tahlil qiladi, Bank faoliyatiga oid hisobotlar va o‘z tavsiyalarini muntazam ravishda Bankning kuzatuv kengashiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.

3. Audit qo‘mitasi bevosita Bankning kuzatuv kengashiga bo‘ysunadi.

4. Bankning kuzatuv kengashi Audit qo‘mitasiga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarning ijrosini doimiy ravishda nazorat qilib boradi va buning uchun yetarli vaqt ajratadi hamda Audit qo‘mitasini tajribali a‘zolar bilan butlaydi.

5. Audit qo‘mitasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi va Bankning kuzatuv kengashi qarorlari, Bank ichki normativ hujjatlari va mazkur Nizomga amal qiladi.

2-§. Audit qo‘mitasi tarkibi, uni tuzish va vakolatlarini tugatish

6. Audit qo‘mitasi tarkibiga Bank kuzatuv kengashining 3 (uch) nafardan kam bo‘lmagan a‘zolari kiritiladi. Audit qo‘mitasi Bank kuzatuv kengashining boshqa qo‘mitasi a‘zolidagi bo‘lgan aynan bir shaxslar tarkibidan iborat bo‘lishiga, shuningdek, Bank kuzatuv kengashining bir a‘zosi bir vaqtning o‘zida turli qo‘mitalar raisi bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Audit qo‘mitasining ko‘pchilik a‘zolari Bankka aloqador shaxslar bo‘lmasligi kerak, bundan ularning Bankning kuzatuv kengashidagi a‘zoli mustasno. Bankning kuzatuv kengashi raisi Audit qo‘mitasining raisi bo‘lmasligi lozim.

Audit qo‘mitasining a‘zolari oliy ma‘lumotga, audit xizmatining maqsadi va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Audit qo‘mitasining kamida bitta a‘zosi audit, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo‘yicha kamida 5 yillik tajribaga ega bo‘lishi kerak.

7. Audit qo‘mitasi a‘zosi bo‘lgan Bank kuzatuv kengashi a‘zosining ushbu kengash a‘zolidan chiqarilishi, uning Audit qo‘mitasidagi a‘zoliqining tugatilishiga olib keladi.

8. Agar Audit qo‘mitasi a‘zosining vakolati tugatilsa, Bank kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilishida Audit qo‘mitasining yangi a‘zosi saylanadi. Audit qo‘mitasining yangi a‘zosi saylanguncha, Audit qo‘mitasi o‘z faoliyatini joriy tarkibda yuritadi.

3-§. Audit qo‘mitasining vazifalari

9. Audit qo‘mitasining vazifalari quyidagilardan iborat:

a) ichki auditga oid ichki normativ hujjatlar va moliyaviy hisobotni ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayonida ishtirok etish;

b) nazoratga oid, moliyaviy va boshqa hisobotlar taqdim etilishi, to‘liqligi va ishonchliligini nazorat qilish;

d) o‘z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan Bankning kuzatuv kengashi yig‘ilishlariga ma‘lumot tayyorlash va Bankning kuzatuv kengashiga hisobot taqdim etish;

e) ichki va tashqi auditorlar bilan Bankning o‘zaro aloqasini nazorat qilib borish;

f) Ichki audit departamenti direktorini tayinlash (lavozimidan ozod qilish) masalasini ko‘rib chiqib, Bankning kuzatuv kengashiga taklif kiritish;

g) Ichki audit departamentining choraklik hisobotlarini o‘rganib chiqish va Bankning kuzatuv kengashiga taqdim etish;

h) Bankning ichki nazorat tizimi va ichki auditi faoliyati samaradorligi va monandligini ta‘minlash uchun ularni baholash, ichki audit tekshiruvlari rejasi va tekshiruvlarning davriyligini

ko'rib chiqish, Ichki audit departamenti direktori o'z vazifalari va majburiyatlarini qay darajada amalga oshirayotganligini baholashda ishtirok etish va o'z fikrini bildirish;

i) har chorakda kamida bir marta Ichki audit departamenti direktori bilan uchrashuv o'tkazib, Ichki audit departamenti faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilish;

j) tashqi auditor takliflarini baholashda Bankning kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish, tashqi auditorni tanlashda Bankning kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

k) tashqi auditorning xizmatiga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzilishi (bekor qilinishi) to'g'risida Bankning kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

l) tashqi auditor uchun texnik vazifalarni ishlab chiqishda Bankning kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish;

m) ichki va tashqi auditorlar hisobotlarini qabul qilib olish hamda ularda va boshqa nazoratni amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalar tomonidan aniqlangan O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Bank siyosatlarini va Bank ichki normativ hujjatlariga nomuvofiqliklar va kamchiliklarning Bank boshqaruvi tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

n) tashqi auditor hisoboti va xulosalarini ko'rib chiqish va ularni Bankning kuzatuv kengashiga taqdim etish;

o) tashqi auditor faoliyati qoniqsiz deb baholangan taqdirda, uni o'zgartirish yuzasidan Bankning kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

p) Bank faoliyatining shaffofligi va ma'lumotlarning oshkor qilinishi yetarli darajada va aniq ekanligini ko'rib chiqish;

q) o'z faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlash;

r) Bankda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro almashish, shuningdek, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish bo'yicha choralarni ko'rish maqsadida Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi va Audit qo'mitasi o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yish;

s) Bankning kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

10. Audit qo'mitasi har chorakda Ichki audit departamentining o'tkazilgan ichki audit natijalari bo'yicha hisobotini eshitadi.

4-§. Audit qo'mitasi ishini tashkil etish va majlisini o'tkazish

11. Audit qo'mitasi raisi Audit qo'mitasining ishini tashkil etadi, shu jumladan:

a) Audit qo'mitasining yillik ish rejasini tasdiqlaydi;

b) Audit qo'mitasi majlisini chaqiradi va unga raislik qiladi;

d) Audit qo'mitasi majlisining kun tartibini belgilaydi;

e) Audit qo'mitasi qarorlari ijrosini nazorat qiladi;

f) Audit qo'mitasi ish faoliyati natijalari bo'yicha Bankning kuzatuv kengashiga axborot

beradi;

g) Audit qo‘mitasi vakolatlari doirasida boshqa funksiyalarni bajaradi.

12. Ichki audit departamenti Audit qo‘mitasining ishchi organi sifatida Audit qo‘mitasi majlisi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha hujjatlarni to‘playdi (yig‘adi) va ularni Audit qo‘mitasi majlisiga kiritadi, Audit qo‘mitasi majlislari bayonnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi va saqlaydi.

13. Audit qo‘mitasi majlisi Audit qo‘mitasining yillik ish rejasi bo‘yicha, biroq bir chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi.

14. Audit qo‘mitasi majlisida qaror majlisda hozir bo‘lgan Audit qo‘mitasi a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

15. Audit qo‘mitasi majlisida bayonnoma yuritiladi va unda quyidagilar qayd etiladi:

a) Audit qo‘mitasi majlisi o‘tkazilgan sana;

b) majlisda hozir bo‘lgan Audit qo‘mitasi a‘zolarining shaxsiy tarkibi;

d) Audit qo‘mitasi majlisiga taklif etilgan shaxslar;

e) Audit qo‘mitasi majlisida muhokama qilingan masalalar;

f) Audit qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan qarorlar.

16. Audit qo‘mitasi majlisining bayonnomasi majlisda raislik qilgan va ishtirok etgan Audit qo‘mitasi a‘zolari tomonidan imzolanadi.

17. Audit qo‘mitasi majlisi bayonnomalari Ichki audit departamenti tomonidan varaqlari raqamlangan, ip bilan tikilgan, Bank boshqaruvi raisi o‘rinbosari va Ichki audit departamenti direktori imzolari hamda asosiy muhr bilan tasdiqlangan maxsus jurnalda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

5-§. Audit qo‘mitasi a‘zolarining huquq va majburiyatlari

18. Audit qo‘mitasi a‘zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Bank va uning aksiyadorlari manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yishlari lozim.

19. Audit qo‘mitasi a‘zolarining huquqlari:

a) Bank boshqaruvi, Bosh bank tarkibiy tuzilmalari va bank xizmatlari ofislaridan zarur bo‘lgan barcha hujjat, ma‘lumot va materiallarni olish (so‘ralgan hujjat, ma‘lumot va materiallar 3 (uch) bank ish kuni ichida Audit qo‘mitasining ishchi organi – Ichki audit departamentiga taqdim etilishi lozim);

b) O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va Bank ichki normativ hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

20. Audit qo‘mitasi a‘zolarining majburiyatlari:

a) ichki auditga oid barcha hujjatlar va materiallarni sinchiklab o‘rganish, o‘rganish natijalarini Audit qo‘mitasi majlisi muhokamasiga o‘z vaqtida kiritish;

b) bank va tijorat sirini saqlash, o‘z funksiyalarini bajarish uchun foydalanishga berilgan va sir saqlanadigan ma‘lumotlarni oshkor qilmaslikka amal qilish.

6-§. Audit qo‘mitasi a‘zolarining javobgarligi

21. Audit qo‘mitasi raisi Audit qo‘mitasining majlisi o‘tkazilishini tashkil etish uchun javob beradi.

22. Audit qo‘mitasi a‘zosi sir tutiladigan ma‘lumotlarni oshkor etganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq shaxsan javob beradi.

7-§. Yakuniy qoidalar

23. Audit qo‘mitasining qarori va unga oid materiallar, shuningdek ushbu qo‘mita a‘zolarining fikrlari maxfiy hisoblanadi va Audit qo‘mitasi ruxsatisiz oshkor etilishi mumkin emas.

24. Audit qo‘mitasi majlisiga taklif etilgan Bank xodimlari ushbu Nizomning 23-bandida qayd etilgan maxfiy ma‘lumotlarni oshkor etganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

25. Ichki audit departamenti Audit qo‘mitasining ishchi organi sifatida kun tartibiga kiritilgan masalalar bo‘yicha materiallarni Audit qo‘mitasi a‘zolariga, ushbu qo‘mita majlisi bayonnomasini uning bajarilishi uchun mas‘ul bo‘lgan bank xizmatlari ofisi yoki Bosh bank tarkibiy tuzilmasiga o‘z vaqtida yetkazilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Boshqaruv raisi v.v.b.

K.Gabbazov